

INNOVATIVE IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION USE OF TECHNOLOGIES AND PROBLEM TEACHING METHODS PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES ” SUBJECT

Turdaliyeva Khilola Obitjonovna

She is a Teacher at School 196, Olmazor District, Tashkent

ANNOTATION

The use of innovative technologies in the teaching of pedagogical sciences, taking into account the moral and psychological-volitional aspects, guarantees the success of this process.

Keywords: innovative technologies, pedagogy, integration, education system, psychological environment

INTRODUCTION

Ta'lim tizimiga kirib kelayotgan yangilanishlar uning mazmunini, tuzilishini, usullarini qayta ko'rib chiqish, mukammallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Jumladan oliy ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan modul tizimi, reyting asosida baholash, yangi pedagogik texnologiyalar, test sinovlari shular jumlasidandir.

Hozirgi davr yoshlari dunyoqarashi keng, erkin fikirlovchi voqelikka adekvat to'g'ri baho bera oluvchi, o'tkir zehinli, mustahkam irodali, qisqa qilib aytganda uyksak intelluktual kuchga ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun esa ta'lim tizimiga yangi innovatsiyalarni ta'sis etish zarur va shartdir. Talaba (sust) tinglovchi-ob'yekt bo'lmay, ta'lim jarayonining (faol) ishtirokchisi-sub'yektiga aylanishi zarur bo'ladi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimiga kiritilayotgan yangi pedagogik texnologiya jarayoni ham innovatsiyalar va integratsiyalarning yorqin misolidir. Qo'yilayotgan identiv maqsadlar, nazorat topshiriqlarni aniq fe'llarda ifodalanishi talaba aqliy faoliyatining rejasini yaqqol ko'rsatadi, o'z-o'zini boshqarishning yo'nalishini belgilaydi. Bu innovatsion faollikning aniq ko'rinishiga misol bo'la oladi. Aqliy faoliyatni jonlashtirishda ushbu yo'nalish maqsadlarni belgilashga yordam beradi. Maqsadning aniqligi esa, faoliyatning sermahsulligidir. Qachonki faoliyat o'zining ijobiy natijalarini berar ekan bu ayni muddaodir. Ammo ushbu jarayonni tashkil etishda talabalar o'quv faoliyatiga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy omillar turkumi mavjuddir:

bilim maskanlarida zamonaviy texnik vositalar va asboblarning mavjudligi; turli xil to'garak, sektsiya, bilim uylari faoliyat ko'rsatishi va ularda qatnashish imkoniyatining borligi;

oila muhitida yaratilgan moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar hamda shaxslarning ruhiy rag'batlanishi yo'lga qo'yilganligi;

shaxslar bilan o'zaro muloqotlar o'rnatilishining uzluksizligi va oilada shaxslararo iliq psixologik muhitning hukm surishi;

turli televizion viktorinalar, bahslar, tortishuvlar, zukkolik, ijodkorlik, tezkorlik bo'yicha musobaqalar uyshtirilishi va ularda qatnashish (ishtirok etish) imkoniyati yaratilganligi;

ortiqcha informatsiya, xabarlar ko'lamini kamaytirish (masalan, videolar, avtomat o'yinlar);

yoshlarni ro'zg'or ishlari bilan band qilib qo'yish, oila muhitida mehnatning shaxslararo oqilona taqsimlanmasligi va shaxsni qat'iy uymush bilan shug'ullanishga majbur etilganligi; hozirgi davrda ayrim kasblarning nufuzini kamayib ketayotganligi talabalarning o'quv motivlariga kuchli ta'sir qilayotganligi;

o'g'il va qizlarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'ularining beqarorligi va ularning shakllanishining orqada qolishi;

yoshlar o'rtasida borliqqa, jamiyatga, shaxslararo munosabatga, isrofgarchilikka, fidoyillika nisbatan loqaydlikning mavjudligi va boshqalar.

Shunday ekan, uyqoridagi ijobiy omillarni kuchaytirish, salbiy omillar ta'sirini kamaytirish va yo'qotish chora tadbirlarini belgilab borish va integratsion jarayonda innovatsion omillarga alohida e'tibor berish, psixologik asoslarini o'rganish hamda tahlil qilib borish ijobiy natija beradi.

Mustaqil fikr-mulohaza insonda mavjud bilimlarni, fikr va voqelikka bo'lgan munosabatlarning erkin uyzaga chiqarilishidir. Albatda, ushbu jarayon o'z o'zidan ro'yobga chiqmaydi, ayniqsa ta'lim-tarbiyada.

Ma'lumki ta'lim-o'qituvchi va o'quvchi orasida o'rnatiladigan pedagogik munosabatlar majmuidir. Ana shu munosabatlarda o'zaro ishonch, talab va tartib muhimdir, ya'ni bilimlar ortib boradi, intellekt mukamallashadi. Ta'lim tizimiga joriy etilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan ko'zlanayotgan asosiy maqsad ham huddi ana shundadir. Yangicha yondashuv jarayonida bilim talabalarning o'z ijtimoiy tartiblari asosida paydo bo'ladi va xulq-atvor shaklini ham o'zgarishiga ta'sir qiladi. Mustaqil fikrlarni bildirar ekan, talaba ta'lim jarayonining faqat sub'ekti sifatida ham namoyon bo'ladi, ya'ni teng huquqli ta'lim diologini vujudga keltiradi.

Ayniqsa, ta'limni muammoli tashkil etish talaba o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonni yanada muvoffaqqyatliroq chiqishi uchun psixologik asosga e'tiborni qaratish kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etilganda bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlari mavjud bo'lib, tayyor bilimlarni o'quvchi ongiga yetkazish, esga olish, esda saqlash, qayta esga tushurish, so'zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini ifodalaydi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O'zlashtirishning keyingi darajalarida o'quvchilar olgan bilimlarini amalda tatbiq etishi, ma'lum natijalarni qo'lga kiritishi, to'ldirishi, boyitishi, o'zgartirishi, o'zining mustaqil nuqtai nazariga ega bo'lishi talab etiladi. Bu o'zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv ahamiyatli hisoblanadi.

O'quv jarayonini muammoli tarzda tashkil etish auditoriyaga o'ziga xos psixologik jihatdan yondashuvni talab etadi. Buning uchun o'quvchi va auditoriya o'rtasida hech qanday psixologik g'ov bo'lmasligi, iliq psixologik muhit yaratilishi kerak. Psixologik g'ovni olish uchun tanishuv treningi o'tkazish tavsiya etiladi.

- o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtiradi;
- o'qituvchi ta'limning maqsadiga erishishi kafolatlanadi;
- o'quvchilar, baxs, munozara, muhokamaga yo'naltiriladi;
- o'quvchilar erkin fikrlashga o'rgatiladi;
- o'quvchilarda o'z fikrini ifoda eta olish ko'nikmasi shakllanadi;
- turli fikrlar, g'oyalar bilan tanishib, eng muhimini tanlashga o'rganadilar;

- ongli va ijodiy faoliyatini ta'minlaydi;
- o'qituvchi vaqtdan unumli foydalanadi;
- tanqidiy tafakkurni rivojlantirish imkoni yaratiladi;
- o'quv faoliyatiga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantiradi.

Hozirgi o'quvchilarni aqliy kamolotining rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rganishga chanqoqligi, yangiliklarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lim mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlashini, malakasini oshirib borishini va ongini yanada rivojlantirishini, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishini talab qiladi. So'nggi yillarda ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib yubordi desak xato bo'lmaydi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida o'z o'quvchi-talabalarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa u yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar *ta'lim jarayonining barcha komponentlari; ta'lim qonun-qoidalari, mazmuni, metodlari, vositalar va shakllarining o'quvchi va o'qituvchi aqliy salohiyatini kuchaytirishga yunaltirilgan aniq maqsadlar qo'yilishi hamda ularning to'la bajarilishiga kafolatli olib boradigan, o'ta mukammal ishlab chiqilgan texnologik tizimdir.*

Interfaol metodlar (interaktiv metodlar) - o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, goh noverbal, goho verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlar o'zaro ta'sir asosida qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir, turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik sub'yektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga, kashf etishga ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarda ifodalanishi mumkin. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi interfaol metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning ko'rgazmali metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli evristik modellashtirish metodi;
- ilmiy-tadqiqot metodlari;
- o'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o'qitishning nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish metodi.

Metodlarni qo'llanilish shakliga ko'ra guruhlanishi quyidagi ko'rinishga ega:

Birinchi guruh metodlari: o'quv axborotlarini eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar).

Ikkinchi guruh metodlari: o'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

Uchinchi guruh metodlari: o'quv axborotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli metodlardan foydalaniladi. Bunda talabalarga kitoblar, daftar va boshqa vositalardan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo'llash rag'batlantiriladi.

Innovatsion metodlar quyidagicha tasnif etilmoqda; *yangi bilim egallashga yo'naltirilgan metodlar; olgan bilimlarni amalda tatbiq etishga qaratilgan metodlar; mustahamlash, to'ldirish va nazorat o'rnatuvchi metodlar; bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash metodlari; ijodiy izlanish va tadqiqotchilik metodlari.*

Pedagogik texnologiyalarning asosiy negizi o'qituvchi va o'quvchitalabanning belgilangan maqsadda kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq bo'ladi. O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlasa, ijodiy ishlasa, izlansa, tahlil eta olsa, o'zlari hulosa qila olsa, o'zlariga, guruhiga baho bera olsagina samarali hisoblanadi. Har bir dars, o'quv fani mavzuning o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni bu ikki yoqlama jarayon bo'lib u o'qituvchi, o'quvchi-talabanning bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik tizimdir.

Bunda qanday texnologiyani tanlash aniq maqsadga, natijaga erishishga qaratilgan bo'ladi. Bunda o'quvchi-talabalarning saviyasi guruh xarakteriga, sharoitiga qarab natanlanadi, o'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchi darsning texnologik xaritasini tuzish katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Chunki texnologik xarita har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Buning uchun o'qituvchi pedagogika-psixologiya, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek interfaol metodlardan foydalana olishi kerak bo'ladi. O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish mas'uliyatini sezish, ilmiy- tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, o'qishga, fanga, pedagogikaga va o'zi tanlangan kasbga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijalarga erishish o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi.

Yuqoridagi tahlilardan ko'rinib turibdiki, bo'lajak o'qituvchi kasbiy kompetentligi uchun uning innovatsion metodlarni amaliyotda qo'llashning metodik asoslarini bilishi zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davletov K.D. va b. O'quvchi yoshlarni ishga va ishlab chiqarishga tayyorlash. -T.: O'qituvchi, 1984. 167 b.
2. Mahmudova D.Y. Maxsus ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga psixologik xizmat ko'rsatishning amaliy jihatlari (Metodik tavsiyanoma). – T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zRFITI, 2007. – 9-21-b.
3. Jo'raev R.X., Tolirov O'.Q., SHarirov SH.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-redagogik asoslari. Monografiya. T.: FAN. 2004. 120 b.

4. Usmonxo'jaev A., Akromova F. Ruhiyatni sog'lomlashtirish usullari (shifokor va psixolog hamkorligi). – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – 63 b.
5. Arziqulova D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari: Psix.fan.nom. ... diss. avtoref. – T.: 2002. – 22 b.
6. Avloniy, Abdulla. Maktab gulistoni // Tanlangan asarlar. 2 tomlik. 2-tom. – T.: “Ma’naviyat”, 2006. – 34-92-b.